

O'SMIRINING AXLOQIY SHAKLLANISHIGA OILA MUHITNING TA'SIRI**Turg'unova Sarvinoz Fazliddin qizi****Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya
yo'nalishi 3-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.16750202>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi muhit o'smirlik davrdagi farzandning axloqiy shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Oiladagi muloqot, mehr-oqibat, ota-onaning roli axloqiy qarashlari, xulq-atvori va o'zini anglash jarayonlariga bevosita ta'sir qilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, oila muhiti, axloqiy tarbiya, ajralish, ota-ona roli muloqot madaniyati, shaxs shakllanishi, mustaqillik, oilaviy nizolar, bolalar ruhiyati, farzand, dunyo qarash.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние семейной среды на нравственное формирование ребёнка в подростковом возрасте. Анализируется непосредственное влияние общения, привязанности и роли родителей в семье на нравственные взгляды, поведение и процессы самосознания.

Ключевые слова: Подростковый возраст, семейная среда, нравственное воспитание, развод, родительская роль, культура общения, формирование личности, самостоятельность, семейные конфликты, детская психология, ребёнок, мировоззрение.

Annotation: This article discusses the impact of the family environment on the moral formation of a child during adolescence. The direct impact of communication, affection, and the role of parents in the family on moral views, behavior, and self-awareness processes is analyzed.

Keywords: Adolescence, family environment, moral education, divorce, parental role, culture of communication, personality formation, independence, family conflicts, child psychology, child, worldview.

Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida doimo o'z a'zolariga o'zaro muloqot va o'zaro tushunish vazifalarini qo'yadi. Busiz oila mustahkam bo'la olmaydi. Oilaning ichki barqarorligiga xizmat qiluvchi iqtisodiy funksiya «oila - jamiyat» tizimida ham amal qiladi hamda oila o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Chunki inson resursi jamiyat va davlat uchun zarur ekan, bol tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasida oila davlat funksiyasining sezilarli qismini o'z zimmasiga olishi, oilaning barqaror bo'lishi, avvalo, davlat manfaatlariga mosdir. Ma'lumki, oila a'zolarining salomatligini mustahkamlash, dam olishini tashkil etish, oila a'zolarining bo'sh vaqtlarini o'tkazishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Oilaning o'z a'zolari ma'naviy-psixologik himoyalanganligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir [1]. Chunki inson o'z oilasida va o'z yaqinlari qurshovida oladigan xotirjamlik, erkinlikni hech bir narsa bilan almashtira olmaydi. Shu ma'noda oilaning rekreativ funksiyasi uni mustahkamlikka olib boruvchi eng asosiy yo'ldir. Oilaning nazorat funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada yetakchilik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Oila muhitining o'smir axloqiga ta'siri quyidagi jihatlardan iborat bo'lib, axloqiy qadriyatlarning asosiy manbai sifatida oila ya'ni oila a'zolari o'smirlarga yaxshi va yomonni farqlash, axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatadi. Shuningdek, oila tarbiyasida adolat,

halollik, hurmat, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlar singdiriladi. Oila muhitida tarbiya olgan o'smir jamiyatda to'g'ri, odobli va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishadi.

Kishilar orasidagi asosiy munosabatlar o'zaro muloqotlarga kirishish, ya'ni so'z, imo-ishora, xatti-harakatlar orqali bir-biriga ta'sir o'tkazishga asoslanadi. Oila inson hayotiy faoliyatining o'zagi sifatida ekan, aynan oiladagi muloqot va munosabatlarning keyingi xatti-harakatlari va boshqa insonlar bilan o'zaro kirishadigan munosabatlarining mazmunini belgilab beradi. Aytish mumkinki, har bir shaxs oiladan boshlab insonlararo ijtimoiy munosabatlarga kirishishning boshlang'ich maktabin o'taydi. Hozirgi kunda insoniyat o'rtasidagi barcha munosabatlar (insonlararo munosabatlardan tortib, to davlatlararo munosabatlargacha) nihoyat darajada murakkablashib, o'zaro muloqot va ommaviy axborot vositalari yordamida yanada taranglashtirilgan murakkab bir davrga to'g'ri kelmoqda. Bu holat oila ichki hayotiga ham xosdir. Insonlar har daqiqada kirishadigan muloqot va aloqalarning nihoyatda jadallashuvi, axborotlashgan tizimlarning misli ko'rilmagan darajada ortishi, turmush tarzidagi o'ta asabiy holat, hayot intensivligidan kelib chiqadigan emotsional zo'riqishlar oilaning o'mini yanada oshiradi. Jumladan, jamiyatdagi o'ta murakkab jarayonlardan toliqqan insonlar uchun oila ishonchli boshpana, o'zini har tamonlama erkin sezadigan boshpana hisoblanadi. Shuningdek, oilaning o'zi jamiyatdagi munosabatlarning ta'sirida bo'lganligi sababli o'z a'zolariga, ularning o'zaro munosabatlariga nisbatan o'ta nozik muloqot madaniyatini talab etadi.

Ayrim sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Kluchnikov) inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funksiyalarini farqlab ko'rsatadilar; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi, ya'ni hordiq chiqarishini tashkil etish; N.G.Yurkevich esa ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev - aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish funksiyalarini farqlab ko'rsatadilar. M.R.Bo'riyevaning fikriga ko'ra oila funksiyasi uch yo'nalishdan iborat, jumladan, oilaning demokratik vazifasi, oilaning ijtimoiy vazifasi va oilaning iqtisodiy vazifasi. Oilaning reproduktiv funksiyasi tufayli uning davomiyligi, to'laqonligi ta'minlanadi va bu oila barqarorligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning kichik guruhi va jamiyatning muhim sotsial instituti sifatidagi mavjudligi tarbiyaviy funktsiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Oilada er-xotinning ajralishi, ya'ni nikohning bekor etilishi birinchi navbatda oilaning tarkibiga ta'sir etadi, ya'ni oila to'la oiladan tugal bo'lmagan oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, farzand tarbiyasining bekamu ko'st bo'lishiga oilaning demografik rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar mavjud:

- 1) Farzand;
- 2) Nikoh subyektlarining o'zaro mos kelishlari:
 - a) ijtimoiy mos kelish; b) psixologik mos kelish;
- 3) Nikoh yoshi;
- 4) Oilada ayol va erkakning o'mi;
- 5) Xarakterlarning to'g'ri kelishi yoki kelmasligi;
- 6) Davlat tomonidan oilalarni ijtimoiy himoyalash;
- 7) Oilada huquqning o'mi;

- 8) Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar (qaynona, qayinsingillar, ovsinlar);
- 9) Oila a'zolarining (subyektlarining) sotsial xulqatvori (masalan, narkotik moddalarni iste'mol qilishi, alkogolizm);
- 10) Asossiz yoki asosli rashk;
- 11) Er yoki xotinning kasallikka chalinishi;
- 12) Oiladagi moddiy yetishmovchilik;
- 13) Oilada qariyalarning borligi;
- 14) Nikoh subyektlarining ma'lumotlilik darajasi. [2].

Bu esa o'z navbatida bolalar tarbiyasiga, jumladan, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. Albatta, ajralish oila beqarorligining eng oxirgi ayanchli ko'rinishi bo'lib, shu oila a'zolarining shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etadi. «Ijtimoiy fikr» Markazida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra, o'zbekistonliklarning mutlaq ko'pchiligi (94,8%) ajralishlarga nisbatan salbiy munosabatda. Buni tushunsa bo'ladi. So'rovda fuqarolarimizning ajralishlarga nisbatan salbiy munosabati sabablari ham yuzaga chiqdi. Bular: oilaning barbod bo'lishi (34,2%), bolalarning yetim bo'lib qolishlari (33,8%), ajralishlarning bolalar ruhiyatiga, ta'lim olishlariga va tarbiyasiga salbiy tasir ko'rsatadi. Bu holatdagi noxushlik bor oilalarda istaymizmi yo'qmi shaxsning tarbiyalanish jarayonida ma'lum bir og'ishlarga olib keladi. Natijada shaxs psixikasidagi ma'lum g'alayonlar ta'sirida o'z nuqtai nazarini to'g'ri ifodalash va qaror qabul qilish jarayonida ikkilanishlarga olib kelishi mumkin. Bunga albatta tashqi muhit va shaxsning irodasi, o'zini tutabilishi, fikrlash qobiliyati kabi bir qator omillarning holati katta ahamiyatga ega. Tassavvur qilaylik, bir oilada surinkali kelishmovchilik natijasida oila buzildi. Buzilgan oilada albatta kattalarga nisbatan bolalar ko'proq jabir ko'radilar, ya'ni yoki otaning, yoki onaning mehridan mahrum bo'ladilar. Bu holatda hammamizga ma'lumki farzand tarbiyasiga e'tibor susayganligi sababli, ya'ni yo otaning, yo onaning tarbiya jarayonida ta'siri yo'qligi, farzandning tarbiya jarayonida bo'shliq bo'lishiga olib keladi. Farzandning shaxsiy faoliyatidagi bu bo'shliq, farzandning har xil oqimlarga, guruhlarga yoki boshqa yomon yo'llarga kirib ketishiga sabab bo'ladi. Ota-ona farzandining bunday nomaqbul yo'lga kirganidan ozgina bo'lsa-da, yuragi achishadi, lekin endi bu kech bo'lganligini, farzandining ko'ngli singanligini, uni qaytib tiklash mushkul ekanligini tushinib yetishmaydi, aks holda ajralishmagan bo'lar edi. Biz o'z manfaatimizni emas, balki farzandlar» oldidagi burchimizni, jamiyat va ona yurt oldidagi burchijimizni ustin qo'ymog'imiz darkor.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, pozitsiya, o'zligirini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzuistaklari bilan harakat kilsa, o'z o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsining tarkib topishida axloq o'ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni, o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qaramaqarshiliklariga duch keladi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrofmuhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan bo'ladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash. Kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga - katta yoshdagi odamlarining tutgan yo'li va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi. O'smir xulq-atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyliligi, prinsipialligi sinchkov o'quvchi

tomonidan tahlil qilinadi va qo'llangan tadbiming to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi. Shuning uchun rag'batlantirish va jazolash usulari oqilona, o'z vaqtida qo'llanishi kerak. Psixologik adabiyotlarda mehnat bilan jazolash o'smir psixologiyasida keskin o'zgarish yasashi ifodalangan. Ma'lumki, hamma o'quvchilarga mehnatning qahramonlik, yaratuvchilik ekanligi uqtirib kelinadi. Favqulodda mehnatdan jazo sifatida foydalanish ularga mutlaqo yomon ta'sir etadi. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallashi natijasida barqaror e'tiqod va ilmiy dunyoqarash, tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. O'smirlarning ideallari, negizida orzu, maqsad va ularni ro'yobga chiqarish rejalari namoyon bo'la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug'iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biri dan keskin ajralib turadi. O'smirlar mulohazasini tadqiq qilish ularda ahloqiy tushunchalar baravar tarkib topmasligini ko'rsatdi. A.I. Maliovanov o'smirlarni to'rtta guruhga ajratadi: 1) xatti-harakatda o'zlari anglagan, ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos o'smirlar; 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o'smirlar; 3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o'smirlar; 4) o'zlari biladigan axloqiy talablar bilan, kundalik xulq-atvoming aloqasini tushunmaydigan o'smirlar. Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatdi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy xislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir. O'smir o'g'il-qizlar shaxsining kamol topishida o'zini anglash muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zini anglash jarayonida o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular esa o'smirlarning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi. O'smirda o'zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a'zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning xatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi o'zini anglashning takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O'smirlarda o'zini anglash yangi bosqichga ko'tarilgach, ular o'ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O'quvchi o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining xatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarni anglab yetadi. Natijada unda o'zini o'zi tarbiyalashga bog'liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O'smir o'zini o'zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o'mak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo'lda uchraydigan to'siq hamda qiyinchiliklarni yengadi. O'smirlar yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvoming tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissinin rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan,

zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'sh istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi "anglashilmovchilik g'ovi"ni yo'qotadi. O'smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g'am xo'rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi [3].

Xulosa qilib aytganda, oila muhitining ahamiyati o'smir axloqining shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar, ota-onalar tarbiyasi, ularning axloqiy me'yorlari va oiladagi umumiy muhit o'smirning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Yaxshi tashkil etilgan, mehr-muhabbat va tarbiya bilan boyitilgan oila o'smirlarga to'g'ri axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Aksincha, nizoli, beparvo yoki qattiq oilaviy muhitda o'smirda noto'g'ri xulq va axloqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G' G'oziev. Ontogenez psixologiyasi Toshkent "NIF MSH" 2020. 360 b.
2. I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va Oila psixologiyasining pedagogikasi. Toshkent – 2009. 125 b.
3. Jumayev, N.Z. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma / N.Z. Jumayev .-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-252 b.